

## XUDOYZOD – XUDONING ZODLARIMI?!

**Arabova Ug'iloy Sherqul qizi**

*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Xudoyzod MFY yoshlar yetakchisi*

Alloh taolo bandalariga qo‘l, oyoq, bosh va shu kabi tana a‘zolarini in‘om etar ekan, uning mo‘jazgina yuragiga “Vatan tuyg‘u”sini ham joylab qo‘yar ekan. Bu tuyg‘u yillar mobaynida, dastlab oila va mahallada shakllanib borar ekan. Shu bois biz ularga nisbatan “Kichik Vatanimiz” deya bejizga murojaat etmaymiz...

Men ushbu yuqoridagi satrlar bilan o‘zimning kichik vatanim, unib o‘sgan go‘sham Xudoyzod mahallasining kelib chiqish tarixi va uning toponimi to‘g‘risida fikr yuritmoqchiman.

Xudoyzod mahallasi uzoq o‘tmishiga ega mahallalardandir. U, dastlab, mustaqillik yillarigacha Qarshi tumaniga qarashli qishloq nomi bo‘lgan. Mustaqillik yillaridan so‘ng 1994-yil 17-noyabrga kelib, Qashqadaryo viloyati hokimining qarori bilan Qarshi shahar tarkibidagi Xudoyzod mahallasi sifatida qarala boshlagan.

“Xudoyzod” toponimining kelib chiqishi haqida turli qarashlar mavjud. Aholi orasida bu nomning kelib chiqishini ikki xil taxminlar asosida talqin qilinadi:

Birinchisiga ko‘ra, o‘sha paytda shahar hokimi nomi “Xudod” deb yuritilgan bo‘lib, Qarshi shahar hokimi bu hududda o‘zining dam oladigan maskan sifatida foydalangan. Bu yerda yashovchi aholini “xudodga tegishli” sifatida “xudodlik”, “xudoyzod” deb atashgan. Shu tariqa, “xudoyzod” toponimiyasi kelib chiqqan.

Ikkinchisiga ko‘ra, bu nomning kelib chiqishini bir rivoyatga bog‘lashadi. Rivoyatda aytilishicha, bu hududda yashovchi qishloq aholisi o‘zining saxiyligi, mehmondo‘stligi va saxovatpeshaligi bilan boshqa qo‘shni qishloqliklardan ajralib turgan. Kunlardan bir kuni shu hududdan o‘tib ketayotib karvonlar biroz dam olib, tamaddi qilish uchun to‘xtaganlar. Qishloqliklar ularni juda iliq muomala bilan qarshi olib, noz-ne‘matlar bilan siylab, dam olish uchun boshpanalaridan joy ajratib, ularni rosa mehmon qilishibdi. Qishloqliklarning mehmondo‘st, saxiyligini ko‘rgan mehmonlar “Bu yerda xudoning sevgan bandalari yashar ekan” deya “Xudodliklar” deb atashibdi. Shunday qilib, bu yer “Xudoyzod” deya atala boshlangan ekan.

“Xudoyzod” toponimiyasi haqida olimlar ham o‘z fikrlarini bildirishgan. To‘ra Nafasov, Suyun Qorayevlar shular jumlasidandir. Suyun Qorayev “Xudoyzod” toponimi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi.

“Arablar kelmasdan oldin va islom dini joriy qilinmagan, dastlabki asrlarda xudo (xudoy) soʻzi “xoʻjayin” , “janob” degan maʼnoni bildirgan. “Zoda” soʻzi qaysi maʼnoda ishlatilgan boʻlsa, “zod” soʻzi ham oʻsha maʼnoni anglatgan.”

Toʻra Nafasov “Xudoyzod” toponimiyasini tahlilida oʻzgacha yondoshadi. Avvalombor, “zod//zot” kalimalariga eʼtibor qaratib, quyidagicha fikr bildiradi:

“Arabiy “alloh”, oʻzbekcha tangri maʼnosidagi forsiycha “xudo(y)” va “zod” soʻzlari maʼnolaridan “xudoyzod” nomi izohlansa, “xudoning farzandi” degan maʼno kelib chiqadi, ammo xudoning farzandi yoʻq, biron kishining xudoga farzand boʻlishi mumkin emas. Odam-xudoning bandasi xudoning farzandiman deyishga biron kishining haqqi yoʻq. Xudoning rasuli-Muhammad (s.a.v) paygʻambar. Kishilar Allohning xizmatkori, qulidirlar. Xudoyqul, Abdulloh, Xudoyberdi, Xudoynazar nomli antrotoponimlar shunga nisbatandir. Islom mamlakatlarida Xudoyzod ismini qoʻyish anʼanasi yoʻq”.

Olim tahlil jarayonida toponimning lugʻaviy va ijtimoiy mazmuni oʻzaro mos emas ekanligiga guvoh boʻlib, nomning kelib chiqish asoslarini aniqlashda oʻzbek xalqining uzoq tarixiga murojaat qiladi:

“Eramizning asri oʻrtalarida Oʻrta Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston hududi ham Turk xoqonligi hukmida boʻlgan. Undan oldingi, xususan, kushanlar sulolasi va eftalitlar hukmronligi davrida hozirgi Oʻzbekiston hududida jiddiy madaniy, siyosiy, iqtisodiy, oʻzgarishlari boʻlgan... . Hududda kichik boʻlaklarga boʻlingan hokimliklar yuzaga kelgan. Ularning har biri oʻz mustaqilligi uchun kurash olib borganlar. Har bir viloyatning oʻz hokimi boʻlgan. Muzofotlarning hokimi oʻz unvoni bilan atalgan. Hokimlar Xorazm, Termiz va Miyonqolda shoh, Buxoro va uning yondosh tumanlarida xudot, Fargʻona, Samarqand va Keshda ixshid, Shoshda tudan, Iloqda dehqon nomi bilan mashhur boʻlgan. Oʻtmishda Turk xoqonligi hukmronligiga oʻtgandan soʻng ham boshqaruvning bu usuli davom etgan.

Naxshab asrimizning birinchi ming yilligida ham nufuzli muzofot boʻlganligi maʼlum. Naxshab hokimi ham xudot unvoni bilan yuritilgan... . Xudot kalimasi muzofotimiz quyi tumanlari aholisi nutqida bosh hokim maʼnosini anglatgan. Oʻsha paytlarda “Xudot” soʻzi “bosh hokim” maʼnosini anglatgan. Bosh hokim avlodlari Xudoyzod, xudoyzoda deb yuritilgan. Keyingi davrlarda shoh avlodlari shahzod, shahzoda, xon avlodlari xonzod, xonzoda, bek avlodlari bekozod, bekozoda deb yuritilishi ham xalqimizning ilk oʻrta asrlar boshiga xos qadimiy anʼanasining izlaridir. Dastlab “zod”, soʻngra “zoda” yaralganligini eʼtiborga olsak, “Xudoyzod” eng azaliy kalimasidir.

Naxshab shahri daryoning chap qirgʻogʻida boʻlgan. Shaharga boradigan suv yoʻllari daryoning ikki qirgʻogʻi boʻylab taralgan... . Daryoning chap qirgʻogʻidagi

yerlar eng unumdor, serhosil bo‘lgan. Ana shu mavze Naxshab hokimi avlodlaridan biriga suyurg‘ol qilib berilgan. Bu kishi el orasida xudoyzod atamasi - laqabi bilan mashhur bo‘lgan, hokim avlodi bo‘lgani uchun imtiyozlari katta, obro‘-izzati yuqori bo‘lgan. Naxshabxudotlarining avlodlaridan biri shu mavzeni obod etgan.”

To‘ra Nafasov “Xudoyzod” toponimini tarixiy dalillar bilan uning Naxshab hokimining avlodlari bilan bog‘liq ekanligini ta‘kidlaydi. Olim bundan tashqari nomning fonetik o‘zgarishini e‘tibordan chetda qoldirmay: “ Xudoyzod nomi xudodzod kalimasining o‘zgargan shakli: nom o‘rtasida t tovushi y tovushiga o‘zgargan.” - , deya o‘z qarashlarini tahlil etib, isbotlab o‘tgan.

Yuqoridagi To‘ra Nafasovning fikrlardan kelib chiqqan holda “xudoyzod” toponimi o‘zbek xalqining qadim tarixi bilan bog‘lanadi. Toponimni tahlil qilishda, albatta, uning tarixiylikiga e‘tibor qaratish ancha o‘rinli va ishonchlidir.